

**MASHINA TARJIMASI VA INSON TARJIMONI: ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR SOLISHTIRUVLI TAHLIL**

Zaripboyeva Dinora Ilhombek qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti,

1-kurs talabasi

Telefon: 770142363

zaripbayevadinora1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy tarjima texnologiyalari, xususan mashina tarjimasi (Machine Translation – MT) va inson tarjimonlari faoliyati tahlil qilinadi. Maqola har ikki yondashuvning afzalliklari, kamchiliklari, amaliy qo'llanilishi va kelajakdagi istiqbollari haqida fikr yuritadi. Tadqiqot jarayonida nazariy manbalar, amaliy misollar va mavjud texnologik vositalardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Mashina tarjimasi, inson tarjimoni, sun'iy intellekt, neyrotarjima tizimlari, sifat, aniqlik, madaniyatlararo kommunikatsiya.

Abstract: This article analyzes modern translation technologies, in particular machine translation (MT) and the work of human translators. The article discusses the advantages, disadvantages, practical applications and future prospects of both approaches. The research process used theoretical sources, practical examples and existing technological tools.

Key words: Machine translation, human translator, artificial intelligence, system neurotranslation, quality, accuracy, cultural communication

Аннотация: В статье анализируются современные технологии перевода, в частности машинный перевод (МП) и работа переводчиков-людей. В статье обсуждаются преимущества, недостатки, практическое применение и будущие перспективы обоих подходов. В процессе исследования использовались теоретические источники, практические примеры и существующие технологические инструменты.

Ключевые слова: Машинный перевод, переводчик-человек, искусственный интеллект, системы нейроперевода, качество, точность, межкультурная коммуникация.

Tarjima faoliyati insoniyat tarixida qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lib, bugungi globallashuv davriga kelib uning roli yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, texnologik rivojlanish bilan birga mashina tarjimalari (masalan, Google Translate, DeepL, Yandex Translate) keng qo'llanila boshladi. Biroq inson tarjimonining roli hamon o'z qadrini yo'qotmagan. Shu bois, bugungi maqola mazkur ikki yondashuvni solishtirish, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlashga qaratilgan.

Tarjimaning nazariy asoslari. Tarjima nazariyasi tarjimonlik jarayonining tilshunoslik, madaniyatshunoslik va psixologiya bilan bog'liqligini ta'kidlaydi (Nida & Taber, 1969 1-bob). Tarjima faqat lug'aviy ekvivalentlik emas, balki kontekstual, stilistik va madaniy moslikni ham ta'minlashi kerak. Shu jihatdan inson tarjimasi bugungi kunga kelib ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Tarjima nazariyalaridan biri bo'lgan **ekvivalentlik paradigmi**, matnlar o'rtasida muayyan darajada tenglik bo'lishini taxmin qiladi. Pym bu borada shunday deydi:

"Someone who holds an equivalence theory believes that SL and TL expressions can have the same value in some respect such as form, function or reference." (Pym, 2010, p. 50)

Bu nazariyaga ko'ra, tarjima faqat so'zma-so'z o'girish emas, balki manba tilidagi ma'no, funksiya yoki shaklga yaqinlikni saqlagan holda maqsadli tilga o'tkazish jarayonidir. Inson tarjimoni ushbu kontekstda ekvivalentlikni his qilish, uni moslashtirish va madaniy tafovutlarni hisobga olish qobiliyatiga ega bo'lsa, mashina tarjimasi bu borada cheklovlarga ega.

Mashina tarjimasi: rivojlanish va imkoniyatlar. Mashina tarjimasi dastlab 1950-yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, bugungi rivojlangan texnologiyalar asriga kelib u sun'iy intellekt (AI) asosidagi neyrotarjima tizimlari orqali sezilarli yuksalishga erishdi (Koehn, 2010 p.45-67). Zamonaviy MT tizimlari matnni o'rganish va kontekstni to'g'ri aniqlagan holda oldingi statistik yondashuvlardan ko'ra ancha yuqori aniqlikni ta'minlamoqda. Misol qilib keltiradigan bo'lsak:

Google Neural Machine Translation (GNMT) tizimi 100 dan ortiq tilni qo'llab-quvvatlaydi.

DeepL Translator kontekstual tarjimada inson tiliga yaqin natijalar beradi.

Bundan tashqari, mashina tarjimasi bugungi kunda ayrim muhim bo'lgan sohalarning: tibbiyot, texnika, IT, va biznes hujjatlarining dastlabki tarjimasida kerakli vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bu sohalarda ko'p hollarda aniqlik va standartlashtirilgan iboralar muhim bo'lib, mashina bu vazifani tez va samarali bajaradi. Bu sohalar aniqlilik va standartlashtirilgan iboralar tarjimasini talab qiladi. Shuning uchun ular ko'proq mashina tarjimalariga murojat qilishadi sababi mashina tarjimani tez va samarali amalga oshiradi. Mashina inson tarjimasidan ko'ra ko'proq terminlarni biladi va uni tezda tarjima qila oladi. Shu sababli bu sohalarda ko'proq mashina tarjimasi qo'llaniladi. Masalan, ilmiy va biznes matnlarida ishlatiladigan terminlar: hypothesis, financial statement, stakeholders kabi atamalar mashina tarjimasi orqali juda tez va yetarli darajada aniq tarjima qilinadi. Chunki bu so'zlar rasmiy, texnik tusga ega va madaniy kontekstga bog'liq emas

Inson tarjimon: malaka va professional yondashuv. Inson tarjimonlar tilni nafaqat grammatik, balki madaniy, ijtimoiy, va nutqiy jihatdan chuqur anglaydi. Professional tarjimonlar stilistika, idiomalar, konnotatsiyalar, soha terminologiyasi va muloqot kontekstini to'g'ri yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Akademik va adabiy

tarjimada inson omili ayniqsa muhim (Venuti, 1995 p.12-30). Chunki bilamizki, adabiyot bu san'atdir, inson san'atni his qilgan holatda asar yaratadi. Uni esa albatta inson tarjima qilishi kerak. Sababi mashina tarjimondek kontekstni aniq chiqara olmaydi, inson omili esa san'atkor yaratganini xuddi o'zidek yetkazib berishga harakat qiladi. Shuni aytish kerakki, inson tarjimonlar mas'uliyatni his qila olishadi. Ular kontekstga ehtiyotkorlik bilan yondashishadi, bu esa kitob yoki ilmiy matnlarni tarjima qilishda juda muhim hisoblanadi. Tarjimon matnni mashinaga qaraganda sekinroq bajaradi, shuning uchun ko'pchilik mashina tarjimasidan foydalanadi. Inson tarjimoni, texnologik vositalarga nisbatan sekinroq ishlashi va xizmat narxining maashinaga nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Biroq, uning tarjima jarayonidagi matnlarni sifatli va aniq tarjima qilishi bilan mashina tarjimasidan ancha ustun sanaladi. Inson tarjimon stilistik nozikliklarni, san'at asarlarini madaniy kontekstni va tilning emotsional ohangini chuqur his eta oladi. Shuningdek, u matnning umumiy maqsadi va kontekstini hisobga olgan holda ijodiy yondashuvni namoyon etadi. Shu jihatdan, inson tomonidan bajarilgan tarjima nafaqat til jihatdan, balki madaniy va muloqotiy aniqlik nuqtayi nazaridan ham yuqori ishonchlilikka ega bo'ladi.

Mashinada tarjima qilishning o'ziga xos afzalliklari bo'lishiga qaramasdan, inson tarjimasining ijobiy taraflari judayam ko'p. Misol uchun, mashina tarjimoni juda tez amalga oshiradi u buni amalga oshirish uchun bir nechta soniya kifoya. Shuningdek mashina tarjimasi ancha arzon ba'zida esa tekin. Texnik matnlarni tez va oson aniq qilib tarjima qiladi. Biroq stilistik kamchiliklari ko'p. Bundan tashqari, mashina avtomatlashtirilgan va gapni so'zma-so'z tarjima qiladi. Kontekstni to'liq tushunmaydi. Bu esa uning salbiy tarafi. Qo'shimcha ravishda, u ba'zan noto'g'ri tarjima qilishi mumkin, unga to'liq ishonib bo'lmaydi. Texnologiyalar qanday tez rivojlanmasin, inson tafakkuri, madaniy sezgirlik va muloqotdagi noziklikni anglash qobiliyati hech bir mashina tomonidan to'liq takrorlana olmaydi. Shu sababli, inson tarjimoni nafaqat so'zlarni, balki ularning ortidagi ma'no, kayfiyat va madaniy kontekstni ham aniq va ta'sirli anglay oladi va uni ommaga tushunarli yetkaza oladi.

Tarjima nazariyalaridan biri bo'lgan **ekvivalentlik paradigmi**, matnlar o'rtasida muayyan darajada tenglik bo'lishini taxmin qiladi. Pym bu borada shunday deydi:

"Someone who holds an equivalence theory believes that SL and TL expressions can have the same value in some respect such as form, function or reference." (Pym, 2010, p. 50)

Bu nazariyaga ko'ra, tarjima faqat so'zma-so'z o'girish emas, balki manba tilidagi ma'no, funksiya yoki shaklga yaqinlikni saqlagan holda maqsadli tilga o'tkazish jarayonidir. Inson tarjimoni ushbu kontekstda ekvivalentlikni his qilish, uni moslashtirish va madaniy tafovutlarni hisobga olish qobiliyatiga ega bo'lsa, mashina tarjimasi bu borada cheklangan imkoniyatlarga ega.

Biz ularga misol qilib idomatik ifodalarni keltirishimiz mumkin:

- Inglizcha: "It's raining cats and dogs."
- Mashina tarjimasi (Google): "Bu mushuklar va itlar yog'moqda."
- Inson tarjimoni: "Kuchli yomg'ir yog'moqda."

Bu jumladan ko'rinib turibdiki, inson gapni ma'nosini aniq tushungan halda, gapni so'zma so'z emas kontekst jihatdan tarjima qilgan. Bu esa inson tarjimasining ancha to'g'ri va samarali ishlashini yana bir yaqqol na'munasi hisoblanadi.

Bilamizki, tarjimadan ko'pchilik sohalarda foydalanamiz, shu jumladan yuridika sohasida ham keng foydalanib turamiz. Agar yuridikada mashina tarjimasidan foydalanilsa, u yuridik matnlarni noto'g'ri tarjima qilishi mumkin, noto'g'ri qilingan ish esa sud jarayonlarida turli xil muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Inson qilgan tarjima esa ishonchli va aniq bo'ladi sababi bunda inson huquq normalariga amal qilib qonun-qoidalarga amal qilagan holda tarjima qiladi.

Madaniy kontekstga moslashuv. Mashina tarjimasi ko'pincha matnning kontekstual mazmunini to'g'ri anglay olmaydi, bu esa semantik noaniqliklarga va noto'g'ri tarjimaga olib keladi. Natijada, mashina tarjimasi inson tarjimoniga xos bo'lgan stilistik noziklik, kontekstga moslashuvchanlik va madaniy sezgirlikdan yiroq qoladi. Misol sifatida quyidagi gaplarni ko'rish mumkin.

Inglizcha: "He gave her the cold shoulder."

Mashina tarjimasi: "U unga sovuq yelkani berdi."

Inson tarjimoni: "U unga e'tibor bermadi."

Bu misollar mashina tarjimasining cheklovlari va inson tafakkurining zarurligini ochiq ko'rsatib beradi.

Kelajak istiqbollari. Zamonaviy texnologiyalar yildan yilga rivojlanib takomillashib bormoqda. Shubhasiz kelajakda ham bu innovatsiyalar uzluksiz rivojlanib bu dunyo aholisi uchun juda kata fayda keltiradi. Shu o'rinda mashina tarjimasi ham yanada rivojlanib, ko'proq kontekstni tushunishga qodir bo'ladi. Hozirgi kunga kelib ham sun'iy intellekt sohasidagi yangiliklar, ayniqsa ChatGPT va boshqa LLM (katta til modellari) asosidagi tizimlar inson tiliga tobora yaqin natijalar bermoqda. Biroq, inson tarjimonlar hanuzgacha adabiy, diplomatik, huquqiy va madaniy noziklik talab qilinadigan sohalarda yetakchi bo'lib qoladi. Tarjima faoliyatining eng maqbul shakli esa — **inson va mashina hamkorligi** asosida amalga oshirishdir. Mashina tarjima qilgan ish inson tomonidan ko'zdan kechirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, tarjima sohasida yangi kasblar paydo bo'lmoqda — masalan, tarjima muharriri (post-editor), tarjima sifati tahlilchisi, AI asosidagi

tarjima tizimlarini sozlovchi mutaxassislar hisoblanadi. Bu esa sohaga yangi imkoniyatlar yaratmoqda va yangi kasblar paydo bo'lishi uchun xizmat qilmoqda.

Kelajakda mashina tarjimasi multimodal yondashuv (matn, tasvir va audio) va inson ishtirokidagi post-tahrirlash orqali yanada takomillashishi kutilmoqda. Bu haqda Baharudin va hamkorlari quyidagicha ta'kidlaydi:

“Multimodal translation and integration with human post-editing are emerging directions that will likely shape the future of NMT.”(Baharudin et al., 2019, p. 128950)

Bu yondashuv mashina va inson hamkorligini yanada mustahkamlaydi, tarjima sifatining barqarorligini va kontekstga mosligini oshiradi.

Mashina tarjimasi texnologiyasi tezlik va qulaylik jihatidan katta yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, inson tarjimoning malakasini va kontekstual anglashini, madaniy muvofiqlikni tushunish qobiliyatining o'rnini bosa olmaydi. Har ikkala yondashuvning ustunliklari mavjud bo'lib, ularni o'zaro to'ldiruvchi vositalar sifatida ishlatish mumkin. Yaxshi tarjima — bu texnologiya va inson tafakkurining uyg'unligida qilingan tarjimadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969 1-bob). The Theory and Practice of Translation. Brill Archive.
2. Koehn, P. (2010 p.45-67). Statistical Machine Translation. Cambridge University Press.
3. Venuti, L. (1995p.12-30). The Translator's Invisibility: A History of Translation. Routledge.
4. (Baharudin et al., 2019, p. 128950)
5. (Pym, 2010, p. 50)